



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24 036 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 926 ta). 2020-yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 20,3 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 22,7 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda.




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 705 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	148	3,5 %	Oltinsoy t.	33	3,2 %
Denov t.	122	4,2 %	Qiziriq t.	32	3,0 %
Jarqo'rg'on t.	53	3,0 %	Angor t.	30	2,5 %
Sherobod t.	51	3,0 %	Boysun t.	24	2,3 %
Sho'rchi t.	42	2,7 %	Uzun t.	22	1,7 %
Sariosiyo t.	40	2,8 %	Muzrabot t.	20	1,9 %
Termiz t.	38	2,6 %	Bandixon t.	13	2,0 %
Qumqo'rg'on t.	37	2,4 %			

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga (19 983 ta) nisbatan 4 053 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	4 286	Uzun t.	1 320
Denov t.	2 884	Angor t.	1 218
Jarqo'rg'on t.	1 793	Muzrabot t.	1 070
Sherobod t.	1 696	Qiziriq t.	1 068
Sho'rchi t.	1 556	Boysun t.	1 049
Qumqo'rg'on t.	1 530	Oltinsoy t.	1 032
Sariosiyo t.	1 448	Bandixon t.	639
Termiz t.	1 447		

2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-fevral oyilarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 659 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 657 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	140	3,8 %	Oltinsoy t.	30	3,8 %
Denov t.	117	4,8 %	Qiziriq t.	30	3,4 %
Jarqo'rg'on t.	49	3,2 %	Angor t.	27	2,6 %
Sherobod t.	48	3,3 %	Boysun t.	22	2,6 %
Sho'rchi t.	39	3,0 %	Uzun t.	20	1,9 %
Sariosiyo t.	37	3,3 %	Muzrabot t.	18	2,1 %
Termiz t.	36	2,8 %	Bandixon t.	11	2,1 %
Qumqo'rg'on t.	35	2,9 %			

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-mart holatiga 20 033 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,5 foizni tashkil etdi (3 681 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 39,0 foiz, sanoat – 15,0 foiz, qurilish – 11,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,5 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,9 foiz, axborot va aloqa – 1,8 foiz, boshqa turlari – 9,8 foiz.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	3 708	Uzun t.	1 079
Denov t.	2 440	Angor t.	1 028
Jarqo'rg'on t.	1 515	Qiziriq t.	887
Sherobod t.	1 443	Muzrabot t.	865
Sho'rchi t.	1 285	Boysun t.	847
Termiz t.	1 284	Oltinsoy t.	786
Qumqo'rg'on t.	1 218	Bandixon t.	513
Sariosiyo t.	1 135		

2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024-yil yanvar-fevral oyilarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2020-yilning mos davriga nisbatan 64 tadan 87 taga (o'sish 23 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	140	3,8 %	Oltinsoy t.	30	3,8 %
Denov t.	117	4,8 %	Qiziriq t.	30	3,4 %
Jarqo'rg'on t.	49	3,2 %	Angor t.	27	2,6 %
Sherobod t.	47	3,3 %	Boysun t.	22	2,6 %
Sho'rchi t.	38	3,0 %	Uzun t.	20	1,9 %
Sariosiyo t.	37	3,3 %	Muzrabot t.	18	2,1 %
Termiz t.	36	2,8 %	Bandixon t.	11	2,1 %
Qumqo'rg'on t.	35	2,9 %			

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (18,4 foiz), Denov (12,2 foiz), Jarqo'rg'on (7,6 foiz), Sherobod (7,2 foiz) va Sho'rchi (6,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Termiz sh.	3 669	Uzun t.	1 078
Denov t.	2 431	Angor t.	1 022
Jarqo'rg'on t.	1 509	Qiziriq t.	884
Sherobod t.	1 435	Muzrabot t.	861
Sho'rchi t.	1 279	Boysun t.	845
Termiz t.	1 276	Oltinsoy t.	784
Qumqo'rg'on t.	1 214	Bandixon t.	513
Sariosiyo t.	1 126		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar
2024-yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Sherobod t.	308
Denov t.	238
Uzun t.	232
Termiz t.	202
Jarqo‘rg‘on t.	174
Qumqo‘rg‘on t.	145
Muzrabot t.	129
Qiziriq t.	107
Sariosiyo t.	105
Angor t.	100
Boysun t.	100
Termiz sh.	89
Sho‘rchi t.	87
Oltinsoy t.	72
Bandixon t.	55



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Termiz sh.	452
Denov t.	368
Sariosiyo t.	227
Sho'rchi t.	210
Uzun t.	201
Qumqo'rg'on t.	200
Sherobod t.	199
Termiz t.	184
Jarqo'rg'on t.	168
Angor t.	159
Boysun t.	155
Muzrabot t.	148
Qiziriq t.	130
Oltinsoy t.	128
Bandixon t.	86



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Termiz sh.	591
Jarqo'rg'on t.	194
Termiz t.	188
Denov t.	163
Sariosiyo t.	151
Boysunt.	136
Qumqo'rg'on t.	129
Angort.	112
Qiziriq t.	108
Sho'rchi t.	107
Sherobod t.	93
Muzrabot t.	83
Oltinsoy t.	77
Bandixon t.	65
Uzun t.	64



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 57,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 75,9 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 20,7 foiz ulushni va 120,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

505


Fuqarolik
obyektlarini qurish

468

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 288


Bino va
inshootlar qurish



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Termiz sh.	1 278
Denov t.	1 091
Jarqo'rg'on t.	663
Sho'rchi t.	601
Qumqo'rg'on t.	525
Sherobod t.	516
Angor t.	445
Sariosiyo t.	402
Uzun t.	393
Termiz t.	389
Qiziriq t.	362
Oltinsoy t.	346
Muzrabot t.	330
Boysun t.	249
Bandixon t.	214



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 794 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2020-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 145,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 123,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 174,9 foizni tashkil etdi.

822

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 028

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


4 954

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Termiz sh.	156
Denov t.	110
Sherobod t.	50
Jarqo'rg'on t.	48
Sho'rchi t.	45
Termiz t.	36
Qiziriq t.	36
Qumqo'rg'on t.	34
Uzun t.	31
Sariosiyo t.	30
Oltinsoy t.	29
Muzrabot t.	23
Angor t.	23
Boysun t.	18
Bandixon t.	5



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,8 foiz ulushini tashkil etdi.

2020-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 81,6 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 111,6 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishining o'sish sur'ati 120,0 foizni tashkil etdi;


havo transporti va suv transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'zgarmagan.



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Termiz sh.	349
Denov t.	169
Sherobod t.	111
Sariosiyo t.	110
Termiz t.	106
Jarqo'rg'on t.	102
Sho'rchi t.	94
Boysun t.	85
Uzun t.	72
Angor t.	69
Muzrabot t.	65
Qumqo'rg'on t.	58
Oltinsoy t.	45
Qiziriq t.	37
Bandixon t.	34



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,2 foiz ulushini tashkil etdi.

118

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 388


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Termiz sh.	137
Denov t.	46
Jarqo'rg'on t.	23
Qiziriq t.	21
Sho'rchi t.	21
Oltinsoy t.	17
Sherobod t.	16
Uzun t.	17
Boysun t.	14
Termiz t.	12
Qumqo'rg'on t.	11
Bandixon t.	10
Sariosiyo t.	7
Muzrabot t.	7
Angor t.	6



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 158,7 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 28,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 141,1 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 51,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 143,2 foizni tashkil etdi.



2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Termiz sh.	132
Denov t.	70
Jarqo'rg'on t.	31
Sherobod t.	30
Sho'rchi t.	27
Qumqo'rg'on t.	22
Uzun t.	18
Sariosiyo t.	17
Angor t.	17
Qiziriq t.	16
Termiz t.	16
Muzrabot t.	15
Boysun t.	15
Oltinsoy t.	13
Bandixon t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 379 ta yoki 84,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,0 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 133,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 175,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 44,4 foizni tashkil etdi;

4

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



14

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash



429

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

2024-yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Termiz sh.	109	Oltinsoy t.	20
Denov t.	61	Angor t.	18
Qumqo'rg'on t.	32	Boysun t.	17
Jarqo'rg'on t.	31	Sariosiyo t.	12
Sho'rchi t.	27	Uzun t.	10
Sherobod t.	25	Muzrabot t.	9
Termiz t.	24	Bandixon t.	6
Qiziriq t.	23		

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 20 033 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 11 115 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Hududlar kesimida

Termiz sh. **2 643**

Denov t. **1 186**

Termiz t. **809**

Jarqo'rg'on t. **808**

Sherobod t. **807**

Qumqo'rg'on t. **658**

Sho'rchi t. **648**

Angor t. **560**

Boysun t. **520**

Qiziriq t. **507**

Sariosiyo t. **494**

Muzrabot t. **445**


Oltinsoy t. **371**

Uzun t. **370**


Bandixon t. **289**

2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Sanoat



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Qurilish



Axborot va aloqa

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Hududlar kesimida

Sariosiyo t.	8	Jarqo'rg'on t.	3
Denov t.	7	Oltinsoy t.	3
Termiz sh.	7	Bandixon t.	2
Uzun t.	7	Angor t.	2
Sherobod t.	6	Termiz t.	2
Sho'rchi t.	6	Boysun t.	1
Qiziriq t.	4	Muzrabot t.	1

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 20 033 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 5 050 tasi xususiy korxonalar ulushiga to'g'ri keladi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining 2020-yilga nisbatan ko'payishiga tumanlar kesimida – Sariosiyo (109,9 foiz) ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Termiz sh.	752	Termiz t.	263
Denov t.	718	Muzrabot t.	239
Uzun t.	461	Angor t.	235
Jarqo'rg'on t.	438	Oltinsoy t.	177
Sariosiyo t.	390	Qiziriq t.	170
Sho'rchi t.	364	Boysun t.	133
Qumqo'rg'on t.	342	Bandixon t.	89
Sherobod t.	279		

2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Sanoat




Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Savdo



Axborot va aloqa

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Denov t.	49	Angor t.	7
Termiz sh.	24	Sho'rchi t.	6
Jarqo'rg'on t.	15	Boysun t.	4
Sherobod t.	17	Uzun t.	3
Sariosiyo t.	17	Bandixon t.	3
Termiz t.	10	Qiziriq t.	3
Muzrabot t.	8	Qumqo'rg'on t.	3
Oltinsoy t.	7		

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, 2020-yilning mos davriga nisbatan 1 886 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 517 tadan 1 369 taga (o'sish 852 taga), sanoatda – 431 tadan 850 taga (o'sish 419 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 172 tadan 380 taga (o'sish 208 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Denov t.	504	Oltinsoy t.	220
Sherobod t.	335	Qiziriq t.	199
Termiz sh.	269	Qumqo'rg'on t.	196
Jarqo'rg'on t.	255	Termiz t.	195
Sho'rchi t.	253	Boysun t.	177
Sariosiyo t.	230	Muzrabot t.	154
Uzun t.	228	Bandixon t.	124
Angor t.	220		

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2024-yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Boshqa turlar



Qurilish



Yashash va ovqatlanish

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Termiz sh.	15
Boysun t.	4
Denov t.	1
Termiz t.	1
Sariosiyo t.	1
Sho‘rchi t.	1

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 205 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Afg'oniston Islom Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 57,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 10,7 foiz), Tojikiston (ulushi 5,4 foiz), Turkiya (ulushi 4,8 foiz) va Xitoy (ulushi 3,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Termiz sh.	206	Sho'rchi t.	9
Termiz t.	22	Qumqo'rg'on t.	8
Uzun t.	21	Jarqo'rg'on t.	6
Sariosiyo t.	20	Sherobod t.	6
Boysun t.	13	Qiziriq t.	6
Muzrabot t.	12	Bandixon t.	3
Denov t.	11	Oltinsoy t.	2
Angor t.	10		

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 355 ta korxonalaridan 78 tasi qo'shma korxonalar, 277 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

188	Termiz shahar	18
14	Termiz tumani	8
10	Sariosiyo tumani	10
9	Uzun tumani	12
8	Angor tumani	2
8	Muzrabot tumani	4
8	Denov tumani	3
8	Boysun tumani	5
5	Qumqo'rg'on tumani	3
5	Qiziriq tumani	1
5	Sho'rchi tumani	4
4	Sherobod tumani	2
3	Jarqo'rg'on tumani	3
2	Bandixon tumani	1
	Oltinsoy tumani	2

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.:(76) 225-65-60